O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 22-iyul | 395-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi 100-son farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi maqsadlariga erishishda davlat byudjeti mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash uchun davlat moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirish, byudjet mablag‘larini taqsimlovchi vazirlik va idoralarda ichki audit tizimini takomillashtirish, shuningdek, jamoatchilik ishtiroki va nazoratini kengaytirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi 100-son farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 100-son farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Hisob palatasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti ijrosini tashqi auditdan o‘tkazish va natijasi bo‘yicha tegishli xulosalarni tayyorlash, 2025-yildan boshlab ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yirik tashkilotlar faoliyatini auditdan o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, ijobiy xalqaro tajribadan kelib chiqib, strategik va axborot texnologiyalari auditi turlarini joriy etish, Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotni Hisob palatasiga tashqi audit o‘tkazish va baholash uchun hisobot yilidan keyingi yilning 5-martiga qadar yuborish tartibi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashi (Karimov) viloyat mahalliy byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotning tashqi auditi natijalari, shuningdek,

kelgusi yil uchun byudjet loyihasini baholash boʻyicha Hisob palatasining xulosalari Xalq deputatlari Fargʻona viloyati Kengashining majlislarida Hisob palatasining masʼul vakillari ishtirokida muhokama qilinishi taʼminlansin.

4. Ichki nazorat tizimlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish va ularning samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

a) Fargʻona viloyati hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (Muxidinov) 2025-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish uchun Fargʻona viloyati hokimligi, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan yirik tashkilotlarda ularning birinchi rahbarlari boshchiligida kollegial asosda “Xavflarni boshqarish” qoʻmitalari tuzilsin. Bunda, ushbu tashkilotlarning ichki audit xizmatlari qoʻmitalarning ishchi organi ham hisoblanadi.

Quyidagilar “Havflarni boshqarish” qoʻmitalarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

ichki audit xizmatlari tomonidan tizim faoliyati va maqsadli koʻrsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bilan bogʻliq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning roʻyxati shakllantirilishi va yangilab borilishini taʼminlash;

davlat xaridlari toʻgʻrisidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini taʼminlash hamda aniqlangan xavflarni bartaraf etish;

xavflarni aqlash va bartaraf etish boʻyicha ichki audit xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish;

har chorak yakuni boʻyicha xavflarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan ichki audit xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni atroflicha muhokama qilish;

normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qoʻllash amaliyotidagi xavflarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi ziddiyatlarni bartaraf etish, tegishli normalarni takomillashtirish boʻyicha takliflar tayyorlash;

xavflarning oldini olishni nazarda tutadigan istiqbolli yoʻnalishlarni belgilash;

b) Fargʻona viloyati hokimligi tuzilmasida 2 nafar xodimdan iborat ichki audit xizmati tashkil etilsin.

5. Shunday tartib oʻrnatilsinki, unga muvofiq:

ichki audit xizmatlari vazirlik va idoralar tizimidagi byudjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobyudjet muassasa hamda tashkilotlarda moliyaviy-xoʻjalik faoliyati boʻyicha oʻtkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarni monitoring qilib boradi;

byudjet tizimi byudjetlarida takroriy va asossiz moliyaviy nazorat tadbirlari oʻtkazilishining oldini olish maqsadida davlat moliyaviy nazorati organlari hamda ichki audit xizmatlarining yillik ish rejalariga kiritiladigan moliyaviy nazorat va ichki audit tadbirlari majburiy tartibda Hisob palatasi bilan kelishiladi;

moliyaviy nazorat va ichki audit tadbirlari nazorat ishlarining yillik dasturlari (rejalari) va Hisob palatasi tomonidan taqdim etilgan risk-tahlillar asosida oʻtkaziladi. Bunda risk-tahlillar asosida bir oy muddatda nazorat ishlarini oʻtkazish toʻgʻrisida tegishli choralar ishlab chiqilmaganda yoki oʻrganish natijalari “Masofaviy audit” axborot tizimi orqali Hisob palatasiga taqdim etilmagan yoxud oʻrganish sababsiz rad etilgan hollarda, Hisob palatasining taklifiga binoan davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari masʼul shaxslariga nisbatan intizomiy taʼsir choralari qoʻllaniladi;

davlat moliyaviy nazorati organlari hamda ichki audit xizmatlari tashkil etilgan vazirlik va idoralarga, istisno tariqasida, Markaziy bank va tijorat banklaridan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablagʻlarini oluvchilarning byudjet va davlat qarzi mablagʻlarining harakatiga doir maʼlumotlarni markazlashgan tartibda soʻrab olish vakolati berilsin.

6. Gʻaznachilik xizmati qoʻmitasi Fargʻona viloyati boshqarmasi(Gʻoyipov)ga joriy nazoratni kuchaytirish va moliyaviy intizom buzilishining oldini olish boʻyicha preventiv choralarni joriy etish maqsadida:

davlat xaridlari sohasida qonun buzilishi holatlari aniqlanganda, toʻlovlarni vaqtincha toʻxtatish (ish haki va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida belgilangan kechiktirib boʻlmaydigan xarajatlar bundan mustasno), shartnomani roʻyhatdan oʻtkazmasdan qaytarish, uni bekor qilish va qonun buzilishi holatlari mavjudligi toʻgʻrisida davlat buyurtmachisiga hamda davlat moliyaviy nazorati organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabarnoma yuborilsin;

moliyaviy operatsiyalarning barcha jarayonlarida shubhali holatlar boʻyicha Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentini uch ish kunida xabardor qilinsin;

roʻyhatdan oʻtkazilgan shartnomalar boʻyicha muddati oʻtgan debitor va kreditor qarzdorliklar hisobini yuritish hamda har chorak yakuni boʻyicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar Hisob palatasi hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga tegishli maʼlumot taqdim etib borish vazifalari yuklansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X.Bozarov**

Viloyat hokimi **X. Bozarov**